

ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MASALALARI

JDPU tayanch doktoranti

Almuratova Gulbahor Mansur qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy tarbiya tizimining tarixiy asoslari o'rganilib, Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlarining bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *milliy tarbiya, Abdurauf Fitrat, pedagogik qarashlar, oila tarbiyasi, islomiy ta'limot, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, o'zbek xalqining urf-odatlar, ta'lim tizimi, jadidchilik harakati, yosh avlod.*

Inson o'z ijtimoiy va madaniy rivojlanishida ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy ravishda o'zlashtiradi, zamonaviylashtiradi, boyitadi va keyingi avlodga yetkazadi. Bu jarayon ijtimoiy taraqqiyotda o'zining rang-barang madaniy oqimlarini yaratadi. Shunday qilib, har bir inson tarixiy ijtimoiy va madaniy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiyaning mahsulidir. Milliy tarbiya tizimi o'z xalqining madaniyati va ma'rifiy merosini boyitishga xizmat qiladi. "Yosh avlodning kamolotiga qo'yiladigan talablar milliy tarbiya tizimining mazmunida o'z aksini topadi va ajdodlar tajribasidan foydalangan holda, bu meros avlodlarga ma'naviy tarzda yetkaziladi."²⁵

Milliy tarbiya tizimi jamiyatning rivojlanishi va uning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiya nafaqat ilm va ma'lumot berish, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Tarbiya tizimi milliy g'urur, vatanparvarlik, xalqparvarlik va axloqiy fazilatlar shakllanishida katta rol o'ynaydi.

O'zbek milliy tarbiyasi tarixiy qadriyatlar asosida shakllanib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Milliy tarbiya tizimi o'zbek xalqining urf-odatlar, qadriyatlari va pedagogik tajribalariga asoslanadi. Xalqimiz qadimdan bolalarga hurmat, mehr-oqibat, adolat va halollikni o'rgatishga katta e'tibor qaratgan. Milliy tarbiya oila tarbiyasi, o'z ona tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev so'zlariga ko'ra, "Yoshlarni ilmiy, donishmand, zukko, axloqli va milliy hamda ma'naviy qadriyatlarni hurmat qiladigan insonlar sifatida tarbiyalash bizning ustuvor vazifamizdir."²⁶ Bu fikr milliy tarbiyaning bugungi kunda ham ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Prezidentimiz yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik va xalqqa sodiqlik ruhida tarbiyalashni mamlakat taraqqiyotining asosiy omili deb biladi. Bu esa milliy tarbiya tizimi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila va ta'lim-tarbiya jamiyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Har bir millatning o'ziga xos tarbiya tizimi, qadriyatlari va an'analari mavjud bo'lib,

²⁵ M.Quronov, "O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim makrblarida milliy tarbiyaning ilmiy -pedagogik asoslari" dok.ishi T-19982-nashr-T.: 2000 yil 164-b

²⁶ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" 2021yil 54 b

ular asrlar davomida shakllanib kelgan. O'zbek milliy tarbiya tizimi ham uzoq tarixga ega va uning shakllanishida jadidchilik harakati va milliy uyg'onish davrining etuk mutafakkirlari katta hissa qo'shgan. XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat (1884-1938) o'zining pedagogik merosi bilan milliy tarbiya tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning "Oila", "Rahbari najot" kabi asarlaridagi pedagogik qarashlar milliy tarbiya tizimining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Fitrat oila tarbiyasining jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan ta'sirini ta'kidlagan. Uning fikricha, oila tarbiyasida bolaning axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun zarur bo'lgan barcha tamoyillar mavjud. Fitrat milliy tarbiya tizimining faqat diniy ta'lim bilan cheklanmasligi, balki xalqning urf-odatlarini va an'analari bilan to'ldirilishi lozim deb hisoblagan. Uning "Milliy tarbiya millatning kelajagini belgilovchi omildir"²⁷ degan so'zlari nafaqat o'zbek xalqining, balki boshqa millatlarning kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, milliy tarbiya orqali yosh avlodga o'z xalqining qadriyatlarini, an'analari, urf-odatlarini va axloqiy prinsiplarini o'rgatish, ularni kelajakda mustahkam va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bu jarayon millatning umumiy rivojlanish yo'lini belgilaydi, chunki u yoshlarni o'z millatiga, madaniyatiga va tarixiga hurmat qilishni o'rgatadi. Demak, milliy tarbiya jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi kuchdir desak adashmagan bo'lamiz.

Fitratning fikricha, har bir jamiyat taraqqiyoti o'z avlodlarini qanday tarbiyalayotganiga bog'liq. U "Oila" asarida shunday yozadi: "Milliy tarbiyasiz millat yo'qoladi. Tarbiya milliy bo'lmog'i lozim, toki kelajak avlodlar ajdodlarining ruhini saqlab qolsin."²⁸ Bu so'zlari orqali agarda milliy tarbiya tizimi yo'qolsa, bu qadriyatlar ham unutilib ketishi mumkin. O'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi, til va madaniyatini saqlab qolish uchun, yoshlarni ajdodlarning merosini hurmat qilishga o'rgatish zarur deb takidlagan

Fitrat shunday yozadi: "Bola tarbiyasida ona va otaning majburiyatlari bor. Ona mehribonlik va muhabbatni, ota esa mas'uliyat va jasoratni o'rgatmog'i lozim." Demak, Fitrat bolaning rivojlanishi uchun ota va ona o'rtasidagi muvozanatning ahamiyatini ko'rsatadi va har birining o'ziga xos tarbiyaviy roli borligini ta'kidlaydi. Bu fikrning mohiyati shundaki, bolaning to'g'ri tarbiyasi uchun mehr-muhabbat, jasorat va mas'uliyatni birgalikda o'rgatish kerak.

Milliy tarbiya tizimi asosan oila muhitida shakllanadi. O'zbek oilasi qadimdan bolaning axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamolotiga alohida e'tibor qaratgan. Oilada avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar bola tarbiyasining asosini tashkil etgan. Xususan:

- Kattaga hurmat va kichikka izzat
- Halollik va adolat
- Vatanparvarlik va xalqparvarlik.
- Ilm olishga intilish va mehnatsevarlik.

²⁷ Abdurauf Fitrat "Oila yoki oila boshqaruv tartiblari" Masul moharrir: D.A. Alimova. Tarj va izohlar muallifi Sh. Vahidov. - 2-chi nashr. T.: "ma'naviyat" 2000. 76- b.

²⁸ Abdurauf Fitrat "Oila yoki oila boshqaruv tartiblari" Masul moharrir: D.A. Alimova. Tarj va izohlar muallifi Sh. Vahidov. - 2-chi nashr. T.: "ma'naviyat" 2000. 94 -b.

Ushbu tamoyillar o'zbek milliy tarbiyasining asosiy qoidalaridan hisoblanib, Fitratning oila tarbiyasi haqidagi qarashlarida ham muhim o'rin tutadi. O'zbek xalqining tarbiya tizimi islomiy ta'limot bilan uzviy bog'liq. Fitrat o'z asarlarida Qur'on va hadislar asosida shakllangan axloqiy tarbiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Islomiy ta'limot bolaning axloqiy tarbiyasiga, halol kasb-hunar egallashiga, ilmga chanqoq bo'lishiga targ'ib qiladi. Fitratning "Rahbari najot" asarida:

"Agar bola yoshligidan yaxshi tarbiya topmasa, jamiyatga foydali emas, balki zararli bo'lib yetishadi."²⁹ deb yozgan. Yosh avlodga axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatmaslik, ularni mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalamaslik, ularning kamolotini to'liq rivojlantirmaydi. Shuning uchun yaxshi tarbiya yosh avlodni to'g'ri yo'naltirib, ularning jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun zarurdir.

Fitratning pedagogik qarashlarida oila tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, oila tarbiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- Jismoniy tarbiya – bolaning sog'lom o'sishi va kuchli bo'lishiga
- Axloqiy tarbiya – yaxshi xulq-atvor va odobni singdirishga
- Aqliy tarbiya – ilm olishga rag'batlantirish va tafakkurni rivojlantirish uchun
- Milliy tarbiya – milliy g'urur, urf-odat va qadriyatlarga hurmat uyg'otishga yordam beradi

Albatta ushbu bosqichlarning har biri bolaning har jihatdan to'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Hozirgi ta'lim tizimida Fitratning tarbiya haqidagi qarashlaridan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda samarali bo'lishi mumkin:

- Oilaviy tarbiyada ota-onalar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash.
- Maktablarda milliy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha maxsus darslar tashkil qilish.
- Bolalarni ma'naviy yetuklikka yo'naltirish uchun Fitrat asarlarini o'quv dasturlariga kiritish.

Abdurauf Fitrat g'oyalari asosida tarbiyani rivojlantirish:

- Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.
- Yoshlarda milliy va diniy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi.
- Bolalarda tafakkur qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Bu, o'z navbatida, yosh avlodning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan komil bo'lishiga xizmat qiladi. Milliy tarbiya tizimi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllanib, unda jadidlar g'oyalari katta ahamiyat kasb etgan. Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari oilaviy tarbiya, milliy va ma'naviy tarbiya masalalariga chuqur yondashuvni ta'minlaydi. Uning g'oyalari bugungi ta'lim tizimida ham dolzarbligicha qolmoqda va ularni amaliyotga tadbiq qilish yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

²⁹ Abdujalilova Sh.A "Abdurauf fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari" dissertatsiya ishi T-2025 5-7 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” 2021yil
2. B.Izrayev.Turkiston jadidlarning ko‘mak tashkiloti, Toshkent islom universiteti, 2016-148 b.
3. M.Quronov, “O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim makrablarida milliy tarbiyaning ilmiy - pedagogik asoslari” dok.ishi T-19982-nashr-T.: 2000 yil 112 b
- 4.Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqaruv tartiblari” Masul muharrir: D.A.Alimova.Tarj va izohlar muallifi Sh.Vahidov.- 2-chi nashr-T.: “Ma’naviyat” 2000
5. Muxsiyeva A ”Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari”dis.ishi.t-2005
- 6.Abdujalilova Sh.A ”Abdurauf fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari” dissertatsiya ishi T-2025